

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ**

**FAYZIYEVA MAXBUBAXON RAXIMJONOVNA**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM  
PLATFORMASINI YARATISH VA AMALIYOTGA JORIY ETISH**

**13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора по педагогическим наукам (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of pedagogical sciences (DSc)**

**Fayziyeva Maxbubaxon Raximjonovna**

Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish.....3

**Файзиева Махбубахон Рахимжоновна**

Создание и внедрение в практику образовательной платформы в условиях цифровой трансформации.....31

**Fayzieva Makhbubakhon Rakhimjonovna**

Creation and implementation of an educational platform in the context of digital transformation.....61

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of publications.....66**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
BOSH ILMIY-METODIK MARKAZ**

**FAYZIYEVA MAXBUBAXON RAXIMJONOVNA**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM  
PLATFORMASINI YARATISH VA AMALIYOTGA JORIY ETISH**

**13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2023**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.2.DSc/Ped551 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiyasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspi.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Aripov Mersaid**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jabborov Nasriddin Mirzoodilovich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Axmedjanov Dilmurod Gulomovich**

texnika fanlari doktori, dotsent

**Ibraymov Askar Yesbosinovich**

pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Gulliston davlat univeristeti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil « 5 » 10 kuni soat 14<sup>00</sup>da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.) Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 305 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 25 » 14 da tarqatildi.

(2023 yil « 23 » 10 da) 126 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**J.E.Usarov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

p.f.d (DSc), professor

**D.M.Maxmudova**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi,

p.f.d (DSc), professor

**A.R. Qutlimurodov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,

f.-m.f.n.

## **KIRISH (Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sifatli ta'lim berish, ta'lim olishni yaxshilash va o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanilmoqda. YUNESKOning butunjahon ta'lim forumi-2023 da "uzoq muddatli va doimiy rivojlanib boruvchi raqamli transformatsiya sharoitida ta'limdagi tafovutlarni bartaraf etish uchun raqamli ta'lim kuchidan foydalanish zarurligi" e'tirof etilib<sup>1</sup>, ta'limni demokratlashtirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va keng ko'lamli professional imkoniyatlarga ega raqobatbardosh, tez o'zgaruvchan dunyo uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar interfaol ta'lim olish imkoniyatini beruvchi onlayn ta'lim platformalari, inson intellektini aniqlash orqali mos kurslarni taqdim etuvchi o'qitish tizimlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi. Xususan, Buyuk Britaniya maktablari uchun Espresso raqamli resurslar tizimi, AQSH da o'quvchining bilimiga mos topshiriqlar asosida o'qituvchi Knewton tizimi ishlab chiqilgan. Bu kabi raqamli ta'lim platformalari tajribali va zamonaviy kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Natijada, raqamli ta'lim platformasini yaratish texnologiyasini hamda o'quvchining XXI-asr 4K ko'nikmalarini oshiruvchi ta'lim platformasi tarkibi va mazmunini ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Uchinchi renessans yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi asosida IT-infratuzilmani yaratish, umumta'lim maktablarini raqamlashtirish, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish va raqamli ta'lim platformalarini yaratish va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish vazifalari belgilangan. Bu esa, raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish, raqamli texnologiyalarning ta'limga integratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish, raqamli ta'lim platformalarini yaratish hamda ular asosida o'qitishning xususiy-metodik asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va

---

<sup>1</sup> <https://www.unesco.org/en/articles/education-world-forum-2023-unesco-mobilizes-ministers-greening-education-and-digital-transformation>

ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884- son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etish, raqamli texnologiyalardan ta'lim samaradorligini oshirishda foydalanish, raqamli ta'lim platformalarini yaratish va amaliyotga joriy etishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, xususan: Massachusetts Institute of Technology, Western Washington University, The Ohio State University, George Mason University, Florida A&M University (AQSH); University of Cambridge, British Columbia Institute of Technology, University of Ottawa, Coventry University (Buyuk Britaniya); University of Murcia, Polytechnic University of Catalonia (Ispaniya); Swiss Federal Institute of Technology, George Mason University (Shvetsariya); Technische Universität München, Institute for Education, University of Oldenburg (Germaniya); Universiti Sains Malaysia (Malayziya); Kırıkkale University, Gazi University (Turkiya); Technion-Israel Institute of Technology (Isroil); Vienna University of Technology (Avstriya); University of Padova (Italiya); Wilfrid Laurier University, McGill University (Canada); Université de Lorraine, Health Education and Practices Laboratory (Fransiya); Macquarie University, Monash University, RMIT University, Bandoora, Curtin University (Avstraliya); Ras Al Khaimah, King Abdulaziz University (Saudiya Arabistoni); University of Hong Kong (Xitoy); University of Tokyo (Yaponiya); Korea Advanced Institute of Science and Technology (KAIST) (Janubiy Koreya), GD Goenka University (Hindiston), Lomonosov Moscow State University (Rossiya)da olib borilmoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etish, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'lim platformalarini yaratishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: ta'limda raqamli transformatsiya masalalari o'rganilgan (EDUCAUSE is a higher education technology association, AQSH)<sup>2</sup>, raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etish loyihalangan va amalga oshirilgan (University of Mannheim, Germaniya)<sup>3</sup>, maktablarda raqamlashtirilgan ta'limdagi fanlarning o'rni va mazmunini qayta tiklash va raqamlashtirilgan ta'lim sharoitiga mos mazmunlarni yaratish hamda informatika

---

<sup>2</sup> D. Christopher Brooks and Mark McCormack. Driving Digital Transformation in Higher Education. ECAR research report. Louisville, CO: ECAR, June 2020.

<sup>3</sup> Ifenthaler, D., Hofhues, S., Egloffstein, M., & Helbig, C. (2021). Digital transformation of learning organizations (p. 252). Springer Nature.

va axborot texnologiyalarini ta'limdagi mazmunini ifodalovchi milliy o'quv rejasi ishlab chiqilgan University of Cambridge (Angliya)<sup>4</sup>, Yevropada ta'lim tengsizligi omillari aniqlangan (European Commission Joint Research Centre, Italiya; Higher Institute of Education and Sciences and CEMAPRE, Portugaliya)<sup>5</sup>, umumta'lim maktablari raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan (European Commission - Joint Research Centre, Italy; European Commission - Joint Research Centre, Spain; Greek National Documentation Centre, Greece)<sup>6</sup>, o'qitish va o'rganish muhitida raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi amalga oshirilgan (RMIT University, Avstraliya)<sup>7</sup>, raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni samarali o'qitish metodlari ishlab chiqilgan (University of British Columbia, Kolumbiya)<sup>8</sup>, raqamli texnologiyalarni o'quvchilarning ta'lim samaradorligiga ta'sirining meta-tahlili o'tkazilgan (GD Goenka University, India)<sup>9</sup>, maktab ta'lim tizimida raqamlashtirilgan ta'limning mazmunini o'z ichiga oluvchi konsepsiyalari ishlab chiqilgan (Vienna University of Technology (Avstriya))<sup>10</sup>, raqamli texnologiyalarni yosh bolalar ijodi bilan bog'laydigan tadqiqotlar o'tkazilgan (Curtin universiteti, Avstraliya)<sup>11</sup>, ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, raqamlashtirilgan ta'lim sharoitidagi yangi mazmunga o'tish rejaları tuzilgan (Yevropa universitetlari)<sup>12</sup>, moslashuvchi ta'lim tizimlarini yaratish mavzusida ish olib borilgan va Knewton platformasi yaratilgan (Company Knewton, AQSH)<sup>13</sup>, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichini bashoratlash (prognozlash) uchun Webga asoslangan ta'lim platformasi yaratilgan (University of Malaga, Ispaniya)<sup>14</sup>; mobil o'quvchilar uchun shaxsiylashtirishni ta'minlashning moslashuvchi platformasi yaratilgan (University of Wollongong Australia,

---

<sup>4</sup> Brown N. C., Sentance S., Crick T., Humphreys S. Restart: The resurgence of computer science in UK schools // ACM Transactions on Computing Education (TOCE), 2014. T. 14. №. 2. C. 1-22. National curriculum in England: Computing programmes of study. Department for Education, 2013. 201 c

<sup>5</sup> Blaskó, Z., Costa, P. da, & Schnepf, S. V. (2022). Learning losses and educational inequalities in Europe: Mapping the potential consequences of the COVID-19 crisis. *Journal of European Social Policy*, 32(4), 361–375. <https://doi.org/10.1177/09589287221091687>

<sup>6</sup> Patrícia Costa, Jonatan Castaño-Muñoz, Panagiotis Kampylis, Capturing schools' digital capacity: Psychometric analyses of the SELFIE self-reflection tool, *Computers & Education*, Volume 162, 2021, 104080, ISSN 0360-1315, <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2020.104080>.

<sup>7</sup> Bingimlas, K. A. (2009). Barriers to the Successful Integration of ICT in Teaching and Learning Environments: A Review of the Literature. *Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education*, 5(3), pp. 235-245. <https://doi.org/10.12973/ejmste/75275>

<sup>8</sup> Bates, A.W. (Tony), "Teaching in a Digital Age" (2015). *Open Educational Resources Collection*. 6. Available at: <https://irl.umsl.edu/oer/6>

<sup>9</sup> Sumedha Chauhan, A meta-analysis of the impact of technology on learning effectiveness of elementary students, *Computers & Education*, Volume 105, 2017, Pages 14-30, ISSN 0360-1315, <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2016.11.005>.

<sup>10</sup> Бернхард Штандль Концептуальные шаблоны для образования в области компьютерных наук в средней школе [https://www.researchgate.net/publication/260599143\\_Conceptual\\_Patterns\\_for\\_Secondary\\_School\\_Computer\\_Science\\_Education](https://www.researchgate.net/publication/260599143_Conceptual_Patterns_for_Secondary_School_Computer_Science_Education)

<sup>11</sup> Fielding, K. & Murcia, K. (2022). Research linking digital technologies to young children's creativity: An interpretive framework and systematic review. *Issues in Educational Research*, 32(1), 105-125. <http://www.iier.org.au/iier32/fielding.pdf>

<sup>12</sup> Informatics in education: Europe cannot afford to miss the boat / Report of the joint Informatics Europe and ACM Europe Working Group on Informatics Education. 2015. URL: <http://europe.acm.org/iereport/ACMandIereport.pdf>

<sup>13</sup> Jose Ferreira. Heavy duty infrastructure for the adaptive world. <https://www.knewton.com/resources/blog/ceo-jose-ferreira/heavy-duty-infrastructure/>

<sup>14</sup> J.Campo-Ávila, R.Conejo, F.Triguero, R.Morale-Bueno. Mining Web-based Educational Systems to Predict Student Learning Achievements. [http://www.ijimai.org/journal/sites/default/files/files/2015/02/ijimai20143\\_2\\_6\\_pdf\\_24850.pdf](http://www.ijimai.org/journal/sites/default/files/files/2015/02/ijimai20143_2_6_pdf_24850.pdf)

Avstraliya)<sup>15</sup>; raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonlari tashkil etilgan (ta'lim va o'qitish departamenti, Avstraliya)<sup>16</sup>, "Webga yo'naltirilgan ta'lim platformasining yangi bosqichiga yo'l: inson va sun'iy nusxasi o'rtasida konvergensiya" mavzusi bo'yicha ish olib borilgan (Technology Federal Center of Alagoas, Braziliya; Sultan Qaboos University, Ummon)<sup>17</sup>; elektron ta'lim uchun dinamik moslashuvchi gipermedia WELSA nomli elektron ta'lim platformasi yaratilgan (University of Craiova, Ruminiya), zamonaviy raqamli texnologiyalarning mazmunini o'z ichiga oluvchi o'quv dasturlari (Moskva davlat pedagogika universiteti, Rossiya)<sup>18</sup>; ta'limda onlayn kurslarni yaratish bo'yicha qo'llanma va o'quv uslubiy majmua (Tomsk davlat milliy tadqiqot universiteti, Rossiya)<sup>19</sup>, tadqiqotchilari tomonidan ommaviy ochiq onlayn kurslarni rivojlantirish uchun ko'rsatmalar (Tyumen industrial universiteti, Rossiya)<sup>20</sup> ishlab chiqilgan.

Jahonda raqamli texnologiyalardan ta'limda foydalanish; raqamlashtirilgan ta'lim sharoitiga mos mazmunlarni yaratish; ta'lim platformalarini yaratish; raqamli texnologiyalarning o'quvchilarni ta'lim samaradorligiga ta'sirining meta-tahlillari; EDUCAUSE, KNEWTON, WELSA kabi ta'lim platformalarini yaratish; maktab ta'lim tizimida raqamlashtirilgan ta'limning mazmunini o'z ichiga oluvchi konsepsiyalarni ishlab chiqish; ta'limda raqamli transformasiya masalalarini o'rganish; raqamli texnologiyalarni yosh bolalar ijodi bilan bog'lash bo'yicha ilmiy izlanishlar qator tadqiqotlarda amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda uzluksiz ta'limni axborotlashtirishning metodologiyasi va masofali o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni o'quv jarayoniga kiritishning nazariy hamda uslubiy asoslari A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.SH.Begimqulov, F.M.Zakirova, A.Ibraymov, X.SH.Kadirov, T.T.Kalekeyeva, M.M.Mamarajabov, N.A.Muslimov, N.S.Xaytullayeva, M.Ergashov, U.Y.Yuldashevlar<sup>21</sup>; ta'lim jarayoni uchun elektron

<sup>15</sup> A.A.Hmouz. An adaptive framework to provide personalisation for mobile learners. <http://ro.uow.edu.au/cgi/viewcontent.cgi?article=4467&context=theses>

<sup>16</sup> Обучение цифровым технологиям. Департамент образования и обучения. Штат Виктория. Австралия URL: <https://www.education.vic.gov.au/school/teachers/teachingresources/digital/Pages/default.aspx>.

<sup>17</sup> A.Pedro, E.Soaes, I.I.Bittencourt, E.Costa. Towards a New Generation of Web-based Educational Systems: The Convergence between Artificial and Human Agents. <http://www.itee-edu.com/index.php/itee/article/viewFile/13/13>

<sup>18</sup> Wing J. Research notebook: Computational thinking – What and why // The Link Magazine, 2011. – С. 20-23.

<sup>19</sup> Ареникина Е.А., бабанская О.М., Дворянкина О.Н., Елизарьева Ю.А., Захарова У.С., Можая Г.В. Путеводитель по созданию онлайн-курса. Томский государственный университет-2015// [https://mooc.tsu.ru/wp-content/uploads/2015/09/Pathfinder\\_MOOC\\_FINAL.pdf](https://mooc.tsu.ru/wp-content/uploads/2015/09/Pathfinder_MOOC_FINAL.pdf)

<sup>20</sup> Л.К. Габышева [др.]. Методические рекомендации по разработке массовых открытых онлайн-курсов. Тюмень: ТИУ, 2017. - 24 с.

<sup>21</sup> Abduqodirov A.A. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: Автореферат дис. ... докт. пед. наук. – Тошкент, 1990. – 39 с.; Aripov M. va boshq. Informatika axborot texnologiyalari. – T.: Universitet, 2007. – 264 s., Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori... dis. – T., 2007.; Zakirova F.M. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических ВУЗах. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2009. -39 с. Ibraymov A.YE. Prokuratura organlari xodimlarining malakasini oshirishni masofaviy va aralash shakllar asosida takomillashtirish (raqamlashtirilgan pedagogik dizayn vositalari misolida). Avtoref. dis... ped. fanl. d-ri. – T., 2022. – 71 b.; Kadirov X.SH. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida mediakompetenlikni rivojlantirish texnologiyasi: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. – T.: 2020. B- 47.; Kalekeyeva T. T. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish. Diss... dok (PhD). – T.: 2018. – 135 b., Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik

platformalarni yaratish, ta'limga raqamli texnologiyalarni integratsiyasi masalalari A.D.Asqarov, R.K.Atamuratov, R.H.Ayupov, G.R.Akramova, S.X.Dottoyev, G.Ergasheva, M.H.Lutfillayev, D.N.Mamatov, F.R.Muradova, B.Mo'minov, U.M.Mirsanov, Q.T.Olimov, N.I.Taylaqov, S.Q.Tursunov, M.F.Xakimova, B.Xodjayev, T.T.Shoyardonov, N.Qayumova, S.S.G'ulomov, A.Hayitov<sup>22</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirish, masofaviy ta'limni tashkil etishning didaktik asoslari A.A.Андреев, Е.С.Полат, И.А.Башмаков, Л.Х.Зайнутдинова, Касьянов В.Н, Касьянова Е.В., В.В. Гура, А.Г.Шабанов<sup>23</sup>; raqamlashtirish sharoitida ta'lim muhitini tashkil etish,

---

tauyorgarligini takomillashtirish. Avtoref. dis... ped. fanl. d-ri. – T., 2022. – 78 b.; Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед.фан.док...дис.автореф. – Т: ТДПУ, 2007. – 47 б.; Хайтullayeva N.S. Bo'lajak informatika o'qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida web-texnologiyalardan foydalanish. Diss... dok (PhD). – T.: 2019. – 152 b.; Ergashov M., Haydarov F.I., Isyanov R.G., Maksudov R.X., Sharipov SH.C. Oliy ta'lim muassasalari va professor-o'qituvchilar malakaviy salohiyatini reyting baholashning zamonaviy usul va algoritmlari. – T.: Fan va texnologiyalar, 2011. – 152 b.; Yuldashev U.Y., Zakirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., 2010. – 112 b.;

<sup>22</sup> Asqarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish: ped. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. –T, 2017. –250 b.; R.K.Atamuratov. Virtual - ta'limiy muzey yaratish texnologiyasi. Ped. fan. fals. dok. diss... avtoref. T., 2022. – 46 b.; Ayupov R.H., Gulyamov S.S., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R., Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 447 b. ; Akramova G.R., Raqamli ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkurni shakllantirishning muhim jihatlari. "Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish:strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari / – Buxoro, 2021. – 507 b.; S.X.Dottoyev. Ta'lim jarayonlarining axborot-metodik ta'minotini amalga oshirishning portal texnologiyalari, Diss... dok (PhD). – T.: 2021. – 135 b.; Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – 56 b.; Lutfillayev M.H. Masofali ta'lim tizimining ahamiyati // J. SamDU axborotnomasi. – Samarqand, 2002. –№5. – B.14-16., Mamatov D.N. Raqamli texnologiyalar muhitida ta'limda korporativ hamkorlik jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish: Monografiya. - T: Navro'z, 2022. - 142 b; Muradova F.R. Methods of development of educational electronic resources. Eurasian Journal of Science and Technology. Vol. 1(2). UK, 2019. P. 13-15.; Mo'minov B.B. Pedagogik dasturiy ta'minot yaratish texnologiyasi: Monografiya. – Buxoro, Buxoro nashriyoti, 2010. – 168 b.; Mirsanov U.M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani amaliy dasturlar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish metodikasi (5–6-sinflar misolida) // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 190 b.; Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyatlari yangi avlodini yaratishning nazariyuslubiy asoslari: Dis. ... ped. fan. dokt. – T., 2005. – 286 b.; Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari (Informatika kursi misolida): Avtoref. dis... ped. fanl. d-ri. – T., 2006. – 48 b.; Tursunov S.Q. Tursunov S.K. Elektron ta'lim resurslarini yaratishda kuyiladigan pedagogik-psixologik talablar/Maktab va xayot jurnali. - Toshkent, 2010. № 3. 26-28 b., Xakimova M.F. Axborot ta'lim muhitida innovatsiya va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi. – T.: OOO «Academic Research», 2021. 149-152 b., Xodjayev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan. dok. diss. T., 2016. – 314 b.; Shayardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi: ped. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) dis. – T.: 2017. – 153 b.; Kayumova N.A. Elektron ta'lim muhitida bo'lajak informatika o'qituvchilarini integrativ yondashuv asosida tayyorlash metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. dok. diss... avtoref. T., 2022. – 33 b.; Hayitov A.G'. Umumiy o'rta ta'limda informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'qitishni kompyuterlashtirish nazariyasi hamda amaliyoti: Ped. fan. dok. ... diss. avtoref. – T.: TDPU, 2006. – 37 b.

<sup>23</sup> Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях: Дис. ... док. пед. наук. – М.: 1999. – 289 с.; Теория и практика дистанционного обучения / Под редакцией Е.С.Полат. – М.: Академия, 2004. – 416 с.; А.И Башмаков., И.А.Башмаков. Разработка компьютерных учебников и обучающих систем. [http://ict.edu.ru/books/index.php?a=-books&c=getForm&r=resDesc&d=light&id\\_res=3062.;](http://ict.edu.ru/books/index.php?a=-books&c=getForm&r=resDesc&d=light&id_res=3062.;) Л.Х.Зайнутдинова. Теоретические основы создания и применения дидактических интерактивных программных систем по общетехническим дисциплина. <http://www.dissercat.com/content/teoreticheskie-osnovy-sozdaniya-i-primeneniya-didakticheskikh-interaktivnykh-programmnykh-si#ixzz4P1bTRkGv.;> Касьянов В.Н, Касьянова Е.В. Адаптивные системы и методы дистанционного обучения // Информационные технологии в высшем образовании. — 2004.—Т.1, N 4. — С. 40–60. В.В. Гура. Философские аспекты педагогического дизайна электронной медиаобразовательной среды. <http://cyberleninka.ru/.../filosofskie-aspekty-pedagogicheskogo-dizayna->

raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini samarali boshqarish, raqamli ta'lim resurslarini yaratish masalalari T.V.Беленко, М.Е.Вайндорф-Сысоева, Ю.В.Вайнштейн, А.П.Грецова, А.В.Кешелова, В.А.Куклев, И.Н.Теркулова, Л.И.Прокопова, Т.В.Никулина, В.Н. Погодин, И.А.Пфаненштиль, Е.Б.Стариченко, Н.Б.Стрекалова, Н.Е.Суркова<sup>24</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Xorijlik olimlar D.M.Al-Hezam, P.Andersson, A.Balanskat, A.Balyer, A.W.Bates, K.A.Bingimlas, K.Fielding, D.Ifenthaler, Y.Jang, J.Bersin, M.Christian, N.Negroponte, R.Puentedura, B.Rott, N.Selwyn, J.T.Schmidt, S.Chauhan, V.Gregory, E.C.Wenger<sup>25</sup> kabilarning tadqiqotlarida ta'lim platformalari, ta'limda kompyuter

---

elektronnoy-mediaob; Шабанов А.Г. Моделирование процесса дистанционного обучения в системе непрерывного образования: Дис. ... док. пед. наук. – Барнаул: 2004. – 357 с.;

<sup>24</sup> Беленко Т.В. Формирование готовности будущего учителя к индивидуализации обучения школьников средствами педагогического дизайна: Дис. ... канд. пед. наук. – Белгород. 2020. – 235 с.; М.Е.Вайндорф - Сысоева. Многоуровневая подготовка педагогических кадров к профессиональной деятельности в условиях цифрового обучения. Дис. док. пед. наук. - Москва, 2019. – 461 с.; Ю.В.Вайнштейн. Педагогическое проектирование персонализированного адаптивного предметного обучения студентов вуза в условиях цифровизации: Автореф. дис. док. пед. наук. - Москва, 2021. – 46 с.; Грецова А.П. Развитие познавательных способностей старшеклассников средствами педагогического дизайна: Дис. ... канд. пед. наук. – Саратов.: 2016. – 194 с.; 295.

Кешелова А.В., В.Г. Буданов, В.Ю. Румянцев [и др.]; Введение в «Цифровую» экономику / под общ. ред. А.В. Кешелова ; гл. «цифр.» конс. И.А. Зимненко.–ВНИИ Геосистем, 2017. – 28 с.;Куклев В.А. Становление системы мобильного обучения в открытом дистанционном образовании: Автореф. дис. ... док. пед. наук. – Ульяновск., 2010. – 46 с.; Теркулова И.Н. Цифровая среда как педагогическое условие позитивной социализации обучающихся во франкоговорящих странах: Франция, Канада: Автореф. дис. ... канд. пед. наук.: – М.: 2019. – 27 с.; Л.И.Прокопова. Формирование эффективной системы управления муниципальным образованием на основе цифровой трансформации: Автореф. дис. кан. экон. наук. - Белгород, 2020. – 27 с., Никулина Т.В., Стариченко Е.Б. Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии, управление [Электронный ресурс] / Т.В. Никулина, Е.Б. Стариченко // Педагогическое образование в России. 2018. –№ 8. – С. 107–113.; Образование «в цифре» – взгляд изнутри / В.Н. Погодин // Вести образования. – 2017. – Сентябрь URL: [https://vogazeta.ru/articles/2017/9/20/analytics/248-obrazovanie\\_v\\_tsifre\\_vzglyad\\_iznutri](https://vogazeta.ru/articles/2017/9/20/analytics/248-obrazovanie_v_tsifre_vzglyad_iznutri). Погодин, В.Н. Образование «в цифре» – взгляд изнутри / В.Н. Погодин // Вести образования. – 2017. – Сентябрь URL: [https://vogazeta.ru/articles/2017/9/20/analytics/248-obrazovanie\\_v\\_tsifre\\_vzglyad\\_iznutri](https://vogazeta.ru/articles/2017/9/20/analytics/248-obrazovanie_v_tsifre_vzglyad_iznutri); Пфаненштиль И.А., Панарин В.И. Цифровое образовательное пространство и проблема «расчеловечивания». Профессиональное образование в современном мире. 2020;10(2):3656-3665. <https://doi.org/10.15372/PEMW20200202>; Стариченко Б.Е.. Цифровизация образования: иллюзии и ожидания // Педагогическое образование в России. – 2020. – № 3. – С. 49-58.; Стрекалова, Н.Б. Риски внедрения цифровых технологий в образовании // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. – 2019. – Т. 25. – № 2. – С. 84-88.; Н.Е.Суркова. Методика разработки и использования цифровых образовательных ресурсов при дистанционном обучении в учреждении среднего профессионального образования: Автореф. дис. кан. пед. наук. - Москва, 2007. – 25 с

<sup>25</sup>Al-Hezam, D. M. (2017). The impact of digital technology on children's transition from kindergarten to primary school: Bringing concepts from international research and practice to Saudi Arabia. *Waikato Journal of Education*, 22(2), 47–52.; Andersson, P. Future digitalization of education after Covid-19 / P. Andersson, L.G. Mattsson. – <https://www.hhs.se/contentassets/419c7b2f06a94ee183bf52ca748c98b5/a54.pdf>.; Balanskat, A. (2006). The ICT Impact Report: A review of studies of ICT impact on schools in Europe, European Schoolnet. Retrieved 30 June 2022 from: <https://en.unesco.org/icted/content/ict-impact-report-review-studies-ict-impact-schools-europe>; Balyer, A., & Öz, Ö. (2018). Academicians' views on digital transformation in education. *International Online Journal of Education and Teaching (IOJET)*, 5(4), 809–830.; Bates, A. W. (2015). Teaching in a digital age: Guidelines for designing teaching and learning. Open Educational Resources Collection. 6. Retrieved 30 June 2022 from: <https://irl.umsl.edu/oer/6>; Bingimlas K.A. Barriers to the successful integration of ICT in teaching and learning environments: A review of the literature. *Eurasia Journal of Mathematics, Science and Technology Education*. 2009;5(3):235–245.; Fielding, K. & Murcia, K. (2022). Research linking digital technologies to young children's creativity: An interpretive framework and systematic review. *Issues in Educational Research*, 32(1), 105-125.; Ifenthaler, D., Hofhues, S., Egloffstein, M., & Helbig, C. (2021). Digital transformation of learning organizations (p. 252). Springer Nature.; Jang, Y. (2015). Convenience matters: A qualitative study on the impact of use of social media and collaboration technologies on learning experience and performance in higher education. *Education for Information*, 31(1-2), 73-98.; Jos Bersin. The Disruption of Digital Learning: Ten Things We Have Learned. [Электронный ресурс]. URL : <https://joshbersin.com/2017/03/the-disruption-of-digital-learning-ten-things-we-have-learned/>.; Matt, Christian; Hess, Thomas; Benlian, Alexander (2015). "Digital Transformation

texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik masalalari, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va raqamli ta'lim resurslarini yaratish masalasining nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim va qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2023 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda raqamli texnologiyalarning ta'limga integratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashtirish;

raqamli transformatsiya sharoitida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani mazmunini takomillashtirish;

raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratish talablari, konsepsiyasi, bosqichlari va pedagogik loyihasini takomillashtirish;

raqamli o'quv resurslardan tarkib topgan ta'lim platformasini yaratish va uni amaliyotga joriy etishning didaktik modelini ishlab chiqish;

raqamli ta'lim platformasi vositasida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning xususiy-metodik asoslarini takomillashtirish va tajriba-sinovlarini o'tkazish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri 46-, 10-, Mirishkor tumani 6-, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 16-, Qiziriq tumani 6-, Farg'ona viloyati Qo'qon shahri 1-, 2-, Samarqand shahri 10-, 45-, Toshkent shahri 48-, 64-, 241-sonli maktablarning 1606 nafar o'quvchilari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga doir siyosiy, sohaga doir ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; DTS, milliy

---

Strategies". Business & Information Systems Engineering. 57 (5): 339–343.; Negroponte, N. Being Digital. – New York : Knopf Paperback edition, 1996. – 272 p.; Puenteadura, R. (2006). Transformation, technology, and education. [blog] 18 August. Available at: <http://hippasus>; Rott, B., & Marouane, C. (2018). Digitalization in schools—organization, collaboration and communication. In Digital Marketplaces Unleashed (pp. 113–124). Springer, Berlin, Heidelberg.; Selwyn, N. Education and Technology: Key issues and debates. – London, Bloomsbury, 2016. – 232 p.; Schmidt, Joel T. Digitalization in Education: Challenges, Trends and Transformative Potential, in Führen und Managen in der digitalen Transformation / J.T. Schmidt, and T. Min. [Электронный ресурс]; Sumedha Chauhan, A meta-analysis of the impact of technology on learning effectiveness of elementary students, Computers & Education, Volume 105, 2017, Pages 14-30, ISSN 0360-1315; Vial, Gregory (2019). "Understanding digital transformation: A review and a research agenda". The Journal of Strategic Information Systems. 28 (2): 118–144; Wenger E.C., W. Snyder, J. Pfeffer, R. Sutton, J.S. Brown. / Harvard Business Review on Organizational Learning– M.: O3OH. – 340 p.

o'quv dasturi, darslik kabi hujjatlarni o'rganish; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, so'rovnoma); pedagogik tajriba-sinov; monitoring; natijalarni matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyasiga ta'sir etuvchi omillari raqamli transformatsiya hamda maktablarning raqamli salohiyatini hisobga olgan holda raqamlashtirish strategiyasi, raqamli infratuzilma, raqamli ma'lumotlarni boshqarish, raqamli savodxonlik, standartlar va o'quv dasturlar, ta'lim yondashuvlari va modeli, malaka oshirish kurslari, o'quvchilar va maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini ratsional talqin qilish asosida aniqlashtirilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani mazmuni raqamli texnologiyalarning virtual borliq, to'ldirilgan borliq, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, buyumlar interneti, mobil texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, smart texnologiyalar, kontentni boshqaruv tizimlari, ta'limni boshqaruv tizimlari, ommaviy ochiq onlayn kurslar kabi turlarini ta'limga tizimli va izchil integratsiyalashuvi asosida takomillashtirilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratishning pedagogik loyihasi maqsad, pedagogik yondashuv, raqamli vositalar, ta'lim mazmuni, topshiriqlar, baholash kabi tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik, didaktik, dizayn, texnik, mualliflik huquqi talablari hamda loyihani ishlab chiqish, vaqtni tasdiqlash, dasturiy ta'minotni yaratish va sinovdan o'tkazish bosqichlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

raqamli ta'lim platformasini amaliyotga joriy etishning didaktik modeli ADDIE, ASSURE, Merrill, Gagne, ASADDIE kabi pedagogik dizayn modellari va raqamli texnologiyalardan ta'limda foydalanishning tashkiliy, boshqaruv, texnologik, pedagogik, ahloqiy, dizayn, baholash kabi komponentlari hamda passiv, interaktiv, kreativ, almashtirish, kengaytirish, o'zgartirish kabi yondashuvlarini uyg'unlashuvi asosida takomillashtirilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning xususiy-metodik asoslari "brainsketching (miya eskizi)", "task-based (topshiriqqa asoslangan ta'lim)", "project-based (loyihaviy ta'lim)", "tengdoshlarni o'qitish", "collaborative (hamkorlikdagi ta'lim)", "gamification (o'yinli ta'lim)" texnologiyalarini raqamli ta'lim platformasiga asoslangan aralash ta'lim sharoitida intensiv joriy etish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyasini samarali amalga oshirish omillari hamda o'quvchilarda raqamli savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan "Informatika va axborot texnologiyalari" faning konsepsiyasi, milliy o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

raqamli texnologiyalar mazmuni, turlari va o'quvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ularni "Informatika va axborot texnologiyalari" fani 6-11 sinf darsliklari yaratilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratish talablari, bosqichlari va pedagogik loyihalash jarayonlari kabi mazmunni qamrab oluvchi "Web

dizayn” (№418) o‘quv qo‘llanmasi, “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt” (№232-220) darsligi nashr etilgan;

raqamli ta‘lim platformalarini o‘quv resurslarini ishlab chiqishning tahlil qilish, standartlarni aniqlash, faollashtirish, loyihalash, ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash kabi pedagogik dizayn modeli va TPACK, SAMR, RAT, PICRAT texnologiyalari asosida raqamli ta‘lim platformasi(DGU 20226196, 14.11.2022) hamda raqamli ta‘lim platformasini amaliyotga joriy etishning didaktik modeli ishlab chiqilgan;

raqamli ta‘lim platformasi yordamida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishning “brainsketching (miya eskizi)”, “task-based (topshiriqqa asoslangan ta‘lim)”, “project-based (loyihaviy ta‘lim)”, “tengdoshlarni o‘qitish”, “collaborative (hamkorlikdagi ta‘lim)”, “gamification (o‘yinli ta‘lim)” kabi ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning xususiy-metodik asoslari hamda dars ishlanmalari 6-,8-,9- sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” o‘qituvchi kitobiga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar, usullar va nazariy ma‘lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan “Informatika va axborot texnologiya” fanining takomillashgan mazmunidan “Informatika va axborot texnologiya” fani o‘qitish konsepsiyasi, milliy o‘quv dasturi va darsliklarini tayyorlashda, raqamli texnologiyalarni ta‘limga integratsiyasiga ta‘sir etuvchi raqamlashtirish strategiyasi, infratuzilma va raqamli kontent, raqamli ma‘lumotlarni boshqarish, raqamli savodxonlik, o‘quv dasturlari va standartlar, ta‘lim strategiyalari va modeli, malaka oshirish treninglari, o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi va maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy holati kabi omillari maktablarning raqamli salohiyati va transformatsiyasini oshirishga hamda raqamli savodxonlikka ega o‘quvchilarni tarbiyalashda foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati raqamli transformatsiya sharoitida ta‘lim platformalarini yaratish talablari, bosqichlari va pedagogik loyihalasidan raqamli ta‘lim platformalarini yaratish; o‘quv resurslarini ishlab chiqishning pedagogik dizayn modellaridan raqamli ta‘lim resurslarini yaratish; “brainsketching (miya eskizi)”, “task-based (topshiriqqa asoslangan ta‘lim)”, “project-based (loyihaviy ta‘lim)”, “tengdoshlarni o‘qitish”, “collaborative (hamkorlikdagi ta‘lim)”, “gamification (o‘yinli ta‘lim)” kabi texnologiyalaridan “Informatika va axborot texnologiya” fani darslarini tashkil etish hamda yaratilgan raqamli ta‘lim platformasidan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida 5-11 sinf o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida qo‘llanishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarini raqamli transformatsiya hamda maktablarning raqamli salohiyatini hisobga olgan holda raqamlashtirish strategiyasi, raqamli infratuzilma, raqamli ma'lumotlarni boshqarish, raqamli savodxonlik, standartlar va o'quv dasturlar, ta'lim yondashuvlari va modeli, malaka oshirish kurslari, o'quvchilar va maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini ratsional talqin qilish asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalaridan umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida Informatika ta'limining uzviyligini ta'minlash konsepsiyasi va milliy o'quv dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023 yil 1 iyundagi 04-02/3-486-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etish samaradorligi oshgan;

raqamli transformatsiya sharoitida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani mazmunini raqamli texnologiyalarning virtual borliq, to'ldirilgan borliq, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, buyumlar interneti, mobil texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, smart texnologiyalar, kontentni boshqaruv tizimlari, ta'limni boshqaruv tizimlari, ommaviy ochiq onlayn kurslar kabi turlarini ta'limga tizimli va izchil integratsiyalashuvi asosida takomillashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalaridan umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fani 8-sinf darsligini yaratishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023 yil 1 iyundagi 04-02/3-486-son ma'lumotnomasi). Mazkur milliy o'quv darsliklari umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda asosiy adabiyot sifatida o'quvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirish hamda informatik bilimlarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratishning pedagogik loyihasini maqsad, pedagogik yondashuv, raqamli vositalar, ta'lim mazmuni, topshiriqlar, baholash kabi tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik, didaktik, dizayn, texnik, mualliflik huquqi talablari hamda loyihani ishlab chiqish, vaqtni tasdiqlash, dasturiy ta'minotni yaratish va sinovdan o'tkazish bosqichlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalaridan 2021-2023 yillarda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-202004165 "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" loyihasining dasturiy ta'minotini ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023 yil 2-iyundagi 01/10-1084 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada ta'lim platformalarini yaratish va amaliyotgan tadbiiq etishdagi zamonaviy talablarni aniqlash imkoniyati oshirilgan;

raqamli ta'lim platformasini amaliyotga joriy etishning didaktik modelini ADDIE, ASSURE, Merrill, Gagne, ASADDIE kabi pedagogik dizayn modellari va raqamli texnologiyalardan ta'limda foydalanishning tashkiliy, boshqaruv, texnologik,

pedagogik, ahloqiy, dizayn, baholash kabi komponentlari hamda passiv, interaktiv, kreativ, almashtirish, kengaytirish, o'zgartirish kabi yondashuvlarini uyg'unlashuvi asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'i asosida berilgan 232-220- raqamli nashr guvohnomasi). Mazkur takliflar raqamli transformatsiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim platformalari bilan ishlash va ularning elementlaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan;

raqamli transformatsiya sharoitida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning xususiy-metodik asoslarini "brainsketching (miya eskizi)", "task-based (topshiriqqa asoslangan ta'lim)", "project-based (loyihaviy ta'lim)", "tengdoshlarni o'qitish", "collaborative (hamkorlikdagi ta'lim)", "gamification (o'yinli ta'lim)" texnologiyalarini raqamli ta'lim platformasiga asoslangan aralash ta'lim sharoitida intensiv joriy etish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalari umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fani 10,11-sinflari darsliklari mazmuniga singdirilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023 yil 1 iyundagi 04-02/3-486-son ma'lumotnomasi). Mazkur darsliklar o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiyasini ta'minlash hamda o'qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda hamda 5 ta darslik va 3 ta o'quv qo'llanma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, 229 sahifa asosiy matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyani "**Raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish masalalari, raqamli texnologiyalarni o'qitishning pedagogik muammolari va raqamli ta'lim resurslarini yaratish bo'yicha olib borilgan izlanishlar tahlili, raqamli texnologiyalarning ta'limga integratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar, raqamli texnologiyalarning mazmun-mohiyati,

ularning turlari va imkoniyatlari tahlil etildi, shuningdek, Informatika va axborot texnologiyalari ta'limining umumta'lim maktablarida o'qitilishining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahliliga ko'ra, umumta'lim maktablari "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining takomillashgan mazmuni yoritib berildi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim mazmuni va ko'lamiga o'zgarishlar kiritdi va butun dunyo ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni integratsiyasi bo'yicha strategiya va siyosatlarni qabul qilishga olib keldi. Shu bilan birga raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, ta'lim tizimi sifatini joriy texnologik tendentsiyalarga muvofiq oshirish, moslashtirish va loyihalash muammolarini keltirib chiqardi. Bu esa maktablarning raqamli salohiyati va tayyorgarligini hamda raqamlashtirish darajasini oshirish va muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish uchun o'rganish va tajribaga asoslanish zaruratini keltirib chiqardi.

Raqamli transformatsiya (inglizcha *raqamli transformatsiya, DT*) - bu asosiy texnologik jarayonlarni boshqarish tizimini optimallashtirish bilan birga tashkilot tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni<sup>26</sup> hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya har bir sohani shakllantirgani kabi ta'lim sohasiga ham ta'sir qildi. Ta'limdagi raqamli transformatsiya barcha ishtirokchilar uchun ta'lim va o'qitish tajribasini oshirish maqsadida ta'lim jarayonlariga zamonaviy texnologiyalar va yechimlarni joriy etishdan iborat. Bu cheksiz imkoniyatlar dunyosini ochadi hamda o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida soddalashtirilgan muloqot va hamkorlikni ta'minlaydi, ichki boshqaruv jarayonlarini yaxshilaydi, kampuslarda xavfsizlikni kuchaytiradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'limning raqamli transformatsiyasi – bu ta'lim rejalari va natijalari, ta'lim mazmuni va metodlari hamda tashkiliy shakllarini yangilash, shuningdek, jadal rivojlanayotgan raqamli muhitda har bir o'quvchi erishgan natijalarni baholashni tubdan yaxshilash jarayonidir, deb tavsiflashimiz mumkin.

Tadqiqot davomida raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalar, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish, xususan raqamli ta'lim platformalarini yaratish bo'yicha xorij, MDH, respublika olimlarini ishlari tahlil etildi. Shuningdek, NSW ta'lim departamenti, UNESCO, OECD, Microsoft, ISTE larning raqamli ta'limni yo'lga qo'yish strategiyalari va mazmuni o'rganildi. Unga asosan, respublikamizda raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim muhitini tashkil etish, xususan ta'lim platformalarini yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy ishlarga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

Raqamli transformatsiya jarayonida raqamli texnologiyalarning ta'limga ta'sirini aniqlovchi bir-biriga bog'langan turli omillar muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyasiga ta'sir etuvchi omillari raqamli transformatsiya hamda maktablarning raqamli salohiyatini hisobga olgan holda raqamlashtirish strategiyasi, raqamli infratuzilma, raqamli ma'lumotlarni boshqarish, raqamli savodxonlik, standartlar va o'quv dasturlar, ta'lim yondashuvlari va modeli, malaka oshirish kurslari, o'quvchilar va maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini ratsional talqin qilish asosida aniqlashtirildi. Xususan, raqamli texnologiyalar maktablarning raqamli transformatsiyasiga qanday ijobiy hissa qo'shishi va

---

<sup>26</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

maktablarda samarali o‘zgarishlarga erishish uchun qaysi omillarni hisobga olish kerakligiga oydinlik kiritish maqsadida raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiyasiga ta’sir etuvchi omillar aniqlandi(1-jadval).

**1-jadval**

**Raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiyasiga ta’sir qiluvchi omillar**

<b>Omillar</b>	<b>Tavsifi</b>
<b>Raqamlashtirish strategiyasi</b>	Bu ta’lim muassasasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning strategiyasini tuzish, rivojlantirish va maktabning texnologik yetukligini ta’minlaydigan o‘zaro yordam tizimini yaratishni nazarda tutadi.
<b>Raqamli infratuzilma</b>	Ushbu omil ta’lim muassasalarini texnik ta’minoti(keng polosali optik tolali internet, kompyuter va raqamli qurilmalar, raqamli vositalar va b.), dasturiy ta’minoti(raqamli ta’lim platformalari, raqamli qurilmalar bilan ishlash uchun kerakli dasturlar, raqamli kontentlarni yaratish uchun dasturiy ilovalar va b.) va raqamli ta’lim resurslari bilan ta’minlashni nazarda tutadi.
<b>Raqamli ma’lumotlarni boshqarish</b>	Ma’lumotlarni to‘plash, boshqarish va maktab hisobotlari maktablarning ishlash sifati, qayerda yaxshilanishi kerakligini aniqlashi, ma’lumotlarni tezda topish va aniq ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda maktablarga o‘z natijalarini boshqa muassasalar bilan solishtirish va butun dunyo bo‘ylab ilg‘or tajribalarni o‘rganish imkonini beradi.
<b>Raqamli savodxonlik</b>	O‘qituvchi va o‘quvchilarining raqamli texnologiyalardan(raqamli texnik vositalar va dasturiy vositalardan) foydalanish boyicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishini nazarda tutadi.
<b>Standartlar va o‘quv dasturlari</b>	O‘quv dasturida o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni targ‘ib qiluvchi standartlar bo‘lishini nazarda tutadi.
<b>Ta’lim yondashuvlari va modeli</b>	Ushbu omil o‘qituvchining raqamli texnologiyani o‘quv jarayoniga integratsiyasini amalga oshirish uchun eng samarali ta’lim strategiyalari, yondashuvlari hamda modelidan foydalanishini nazarda tutadi.
<b>O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslari</b>	O‘qituvchilarga raqamli texnologiyalarni sinf amaliyotiga samarali kiritishi uchun texnik va dasturiy yordam hamda innovatsion texnologiyalarni ta’limda qo‘llash bo‘yicha malaka oshirish treninglarda qatnashish imkonini beradi.
<b>O‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi</b>	Bu o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati va ijtimoiy-madaniy muhiti ularning ta’lim yutuqlariga ham ta’sir qilishini anglatadi.

<b>Maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy holati va favqulodda vaziyatlar</b>	Maktablarning geografik joylashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli hamda favqulodda vaziyatlar (pandemiya, davlatlar urushi, turli xil ofatlar va b.)ning ta'sirini nazarda tutadi.
<b>Maxfiylik va xavfsizlik</b>	Maktab o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasini va ularning onlayndagi xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutadi.

Izlanishlar natijasiga ko'ra, raqamli transformatsiya sharoitida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani mazmuni raqamli texnologiyalarning virtual borliq, to'ldirilgan borliq, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, buyumlar interneti, mobil texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, smart texnologiyalar, kontentni boshqaruv tizimlari, ta'limni boshqaruv tizimlari, ommaviy ochiq onlayn kurslar kabi turlarini ta'limga tizimli va izchil integratsiyalashuvi asosida takomillashtirildi. Xususan, raqamli texnologiyalar tavsifi va uning virtual borliq texnologiyalar, to'ldirilgan borliq texnologiyalar, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt, buyumlar interneti texnologiyalari, mobil texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, taqsimlangan texnologiyalar, SMART texnologiyalar, Web 2.0/Web3.0 texnologiyalar, ijtimoiy media texnologiyalar, multimedia texnologiyalar, o'yinli texnologiyalar, blokcheyn texnologiyalari, 3D texnologiyalar, tezkor prototiplash texnologiyalari, ta'limni boshqaruv tizimlari, kontentni boshqaruv tizimlari, ommaviy ochiq onlayn kurslar, katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt, infografika kabi tarmoqlari mazmuni ochib berildi.


Mamlakatimizdagi ta'lim tizimi ham - uni tashkil etish prinsiplari, mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayonining shakl va usullarini yangi ta'lim texnologiyalari talablari darajasida tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining umumta'lim maktablarida o'qitilishining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahlili, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari va ta'limga samarali integratsiyalashuvini hisobga olgan holda, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani mazmuni takomillashtirildi hamda umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida Informatika ta'limini uzviylikini ta'minlash konsepsiyasi, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyani "**Raqamli ta'lim platformasini pedagogik loyihalash va dasturiy ta'minoti**" deb nomlangan ikkinchi bobida raqamli ta'lim platformalarini yaratish zaruriyati, mazkur muammoning mamlakatimizda va xorijda o'rganilganligi haqidagi ma'lumotlar ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan tahlil etildi va platformani yaratish metodologiyasi, jumladan platformani yaratish talablari, konsepsiyasi, bosqichlari, pedagogik loyihasi, tarkibi, mazmuni hamda dasturiy ta'minoti yoritildi.

Raqamli ta'lim platformalari evolyusiyasi bevosita elektron ta'lim platformalari evolyusiyasi bilan bog'liq. Shu sababli tadqiqotda elektron ta'lim platformalari evolyusiyasi va imkoniyatlari ilmiy tahlil etildi hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim platformalarini didaktika qonunlari va chuqur bilimga asoslanganlik yondashuvi asosida ishlab chiqish zarurligi asoslandi.

Tadqiqot davomida raqamli ta'lim platformalarini yaratish uchun pedagog-psixolog, dizayner, front-end va back-end dasturchi kabi mutaxassislar jamoasi va ularning vazifalari belgilandi.

Raqamli ta'lim platformalarini yaratishning *pedagogik, psixologik, didaktik, dizayn, texnik, mualliflik huquqi* talablari hamda konsepsiyasi tarkibi aniqlandi va ular asosida raqamli ta'lim platformalarini yaratish bosqichlari ishlab chiqildi va raqamli ta'lim platformasini yaratish jarayoniga tatbiq etildi(1-rasm).



**1-rasm. Raqamli ta'lim platformasini yaratish bosqichlari**

Raqamli ta'lim platformasini *pedagogik loyihalashning maqsadi*, o'quvchi qobiliyatiga mos mediamateriallarga ega bo'lgan raqamli ta'lim resurslari muhiti hamda ushbu muhitda ishlash jarayonida o'qish motivatsiyasi va o'zlashtirishini aniqlanishi hisobiga ta'lim sifatini oshirish va o'quvchi bilimini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Raqamli ta'lim platformasini pedagogik loyihasini ishlab chiqish pedagog bilan o'quvchining bevosita aloqasi hamda pedagog tomonidan yaratilgan raqamli ta'lim muhiti bilan o'quvchining bilvosita aloqasini amalga oshiradi.

Tadqiqot davomida, raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratishning pedagogik loyihasi maqsad, pedagogik yondashuv, raqamli vositalar, ta'lim mazmuni, topshiriqlar, baholash kabi tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik, didaktik, dizayn, texnik, mualliflik huquqi talablari hamda loyihani ishlab chiqish, vaqtni tasdiqlash, dasturiy ta'minotni yaratish va sinovdan o'tkazish bosqichlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirildi. Xususan, maqsad, pedagogik yondashuv, raqamli vositalar, ta'lim mazmuni, topshiriqlar va baholash, o'qituvchilarni tayyorlash, doimiy takomillashtirish kabi tarkibiy qismlardan iborat raqamli ta'lim platformasini pedagogik loyihasi aniqlashtirildi(2-rasm).




## 2-rasm. Raqamli ta'lim platformasini pedagogik loyihasi

Raqamli ta'lim platformalarini pedagogik loyihalashning didaktik maqsadi – ta'lim oluvchi bilimi va qobiliyatiga mos raqamli materiallarga ega bo'lgan raqamli ta'lim platformasi hamda ushbu platformada ishlash jarayonida o'qish motivatsiyasi va o'zlashtirishini aniqlanishi hisobiga ta'lim sifatini oshirish, ta'lim oluvchi bilimni rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish, ularni professional chuqur bilimga ega bo'lishini (kompetentligini) ta'minlash, mavjud bilimlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan raqamli ta'lim platformasida ta'lim olish muhitini yaratishdan iborat.

Raqamli ta'lim platformasini loyihalashning didaktik maqsadi va platformaning raqamli resurslardan tarkib topganligini inobatga olgan holda, platforma ta'lim olish muhiti tarkibi tavsiya etildi va dasturiy ta'minoti ishlab chiqildi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, raqamli ta'lim platformasi yordamida darslarni tashkil etishda quyidagilar bajarilishi lozim: o'quvchilarning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda diqqatini faollashtirish; o'quvchilarning shaxsiy tajribasini oshirish va aktuallashtirish uchun pedagogik usullarni qo'llash; ichki (o'z) taxminlash jarayonini yo'lga qo'yish orqali maqsadga erishish; avval egallangan bilimlar bilan yangi axborotni bog'lashni takomillashtirish; tartiblangan va mantiqiy

tashkillashtirilgan mazmuni bayon qilish, yangi materialning murakkab nuqtalarini tushuntirib berish, turli raqamli texnologiyalaridan foydalanish orqali ko‘rsatib berish; turli mashg‘ulot va topshiriqlarni bajarish orqali olingan ma‘lumotni mustahkamlash jarayoni ustidan boshqaruv; o‘quvchilar materialni to‘g‘ri tushunayotganligi va to‘g‘ri o‘zlashtirilayotganligini tekshirib borish; muvaffaqiyat keltiruvchi vaziyatlarni yaratish; o‘quvchini individual tarzda o‘quv topshiriqlari, shakllar va usullarini tanlaganda va ularni bajarganda rag‘batlantirish; o‘qituvchining darsdagi ko‘proq faoliyatini tashkil etuvchisi sifatida pedagogik metodlar va texnologiyalarning ishlatilishi; muloqotning turli formalarini ishlatish, maqsadli va tezkor teskari aloqani ta‘minlash. Tadqiqot jarayonida yuqorida ko‘rsatilgan imkoniyatlarga ega raqamli ta‘lim platformasi yaratildi va umumta‘lim maktablarida amaliyotga joriy etilmoqda (3-rasm).



**3-rasm. Raqamli ta‘lim platformasi**

Dissertatsiyani “**Raqamli transformatsiya sharoitida ta‘lim platformasidan foydalanish metodikasi**” deb nomlangan uchinchi bobda raqamli ta‘limni tashkil etish modeli, raqamli texnologiyalarning ta‘limga integratsiyasi yondashuvlari, raqamli resurslarini tayyorlashning pedagogik dizayn modeli, raqamli ta‘lim platformalaridan

foydalanishning didaktik modeli va darslarni tashkil etish strategiyalari va raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish metodikasi yoritilgan.

Raqamli ta'lim platformalarining yaratilishi uni takomillashtirishda ishtirok etgan o'qituvchilarning metodologik, metodik va axborot-texnik tayyorgarligini umumiy darajasini, pedagogik faolligini oshirish va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Tadqiqotda, raqamli ta'lim platformasini amaliyotga joriy etishning didaktik modeli ADDIE, ASSURE, Merrill, Gagne, ASADDIE kabi pedagogik dizayn modellari va raqamli texnologiyalardan ta'limda foydalanishning tashkiliy, boshqaruv, texnologik, pedagogik, ahloqiy, dizayn, baholash kabi komponentlari hamda passiv, interaktiv, kreativ, almashtirish, kengaytirish, o'zgartirish kabi yondashuvlarini uyg'unlashuvi asosida takomillashtirildi. Xususan, elektron ta'lim sohasida global elektron ta'limning 8 ta yo'nalishdan iborat Xan tomonidan ishlab chiqilgan klassik model keng qo'llanilgan. Ushbu model quyidagi yo'nalishlardan (dimensions) iborat: tashkiliy, boshqaruv, texnologik, pedagogik, ahloqiy, dizayn, baholash, resurslarni qo'llab-quvvatlash. Xan modeli yaratilgan vaqtda raqamli texnologiyalar ko'zda tutilmaganligi sababli, tadqiqot davomida ushbu model takomillashtirildi hamda raqamli ta'lim modeli sifatida taklif etildi. Har bir yo'nalish raqamli ta'limni sifatli qo'llab-quvvatlash, loyihalash, ishlab chiqish va baholash sifati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni o'z ichiga oladi.

Raqamli ta'lim platformasi asosida ta'limni tashkil etish uchun puxta o'ylangan pedagogik dizayn zarur bo'ladi. Ta'lim nazariyalariga asoslangan pedagogik dizayn (ID - instructional design) - bu o'quv maqsadlari va ehtiyojlarini tahlil qilish, o'quv faoliyati, materiallar va baholash strategiyalarini tizimli ishlab chiqish hamda o'quvchilarning belgilangan ta'lim natijalariga erishishini ta'minlash jarayoni. Bugungi kunda ta'lim jarayonida ko'plab pedagogik dizayn modellari va tamoyillaridan foydalaniladi. Dissertatsiyada ADDIE, SAM, ASSURE, Merrill, Gagne modellari tahlil qilindi hamda raqamli ta'lim platformasi uchun o'quv materiallarini tayyorlashning tahlil qilish (analysis), standartlarni aniqlash (standart), faollashtirish (activation), loyihalash (design), ishlab chiqish (development), amalga oshirish (implementation), baholash (evaluation) tamoyillaridan iborat TCFLIAB (ASADDIE) modeli taklif etildi (4-rasm).

Raqamli ta'lim platformasi uchun o'quv materialini tayyorlashda pedagogik dizayndan foydalanish: o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilishga yordam beradi; o'quvchilarni ko'p faktlar va ma'lumotlarga botib ketmasliklari uchun ma'lumotlarni tizimlashtirishga yordam beradi; o'qituvchi nafaqat natijalarni oladi, balki ularni tahlil qiladi. Natijalarni tahlil qilmasdan o'quv loyiha muvaffaqiyatli bo'lganligini bilib bo'lmaydi. Demak, mohiyatan pedagogik dizaynning roli bilimlarni nafaqat samarali, ta'sirchan va o'quvchilarni qiziqtiradigan tarzda egallashga yordam beradigan o'quv tajribalarini yaratishdan iborat. Balki, o'quvchilarni mavzuni chuqurroq va mazmunli tushunish, rag'batlantirish orqali o'zlashtirish jarayonini yaxshilash va kerakli bilim darajalariga ega bo'lishiga qaratilgan.



**4-rasm. ASADDIE pedagogik dizayn modeli**

Platformada o‘qitishni tashkil etish uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fani doirasidagi barcha raqamli ta’lim resurslari pedagogik dizayn yondashuvi asosida tayyorlandi va platformaga kiritildi. Buni esa davlat tilidagi o‘qitish platformalarini yaratishdagi dastlabki qadamlardan biri deb hisoblash mumkin. Bu sohada ishlar hozirgi paytda dolzarb bo‘lib turgan onlayn ta’limning o‘quv-metodik ta’minotiga zamin yaratadi.

So‘nggi o‘n yil ichida ta’limga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va ulardan foydalanishni tadqiq etuvchi bir nechta modellar, yogdoshuvlar, standartlar va nazariyalar ishlab chiqildi. O‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni tushunishi va ulardan foydalanishni tavsiflash va muhokama qilish uchun asos sifatida tadqiqot jarayonida TPACK (technological pedagogical content knowledge - texnologik pedagogik kontent bilimlari), RAT (replacement, amplification, transformation - almashtirish, kuchaytirish va o‘zgartirish), SAMR (substitution augmentation modification redefinition - almashtirish, ko‘paytirish, o‘zgartirish va qayta aniqlash) va PIC-RAT (passive, interactive, creative, replace, amplify, transform -- passiv, interaktiv, kreativ, almashtirish, kengaytirish, o‘zgartirish) yondashuvlari hamda ularning imkoniyatlari aniqlandi va raqamli transformasiya sharoitida umumta’lim maktablarida ta’limni tashkil etish uchun PIC-RAT yondashuvi taklif etildi (5-rasm).

Raqamli ta’lim platformasi yordamida o‘qitish – bu ta’lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati, motivi, intellekti va imkoniyatini inobatga oluvchi, zamonaviy innovatsion va raqamli texnologiyalaridan ta’lim oluvchi bilimni rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o‘qitishdir. Raqamli ta’lim platformasi yordamida o‘qitish o‘qitishni differensiallash va individuallashtirishning asosiy tamoyili sifatida qaraladi.

<b>C</b>	<b>CREATIVE</b>	<b>KREATIV</b>	O'quvchining texnologiyadan foydalanish darajasi _____	<b>CR</b>	<b>CA</b>	<b>CT</b>
<b>I</b>	<b>INTERACTIVE</b>	<b>INTERAKTIV</b>		<b>IR</b>	<b>IA</b>	<b>IT</b>
<b>P</b>	<b>PASSIVE</b>	<b>PASSIV</b>		<b>PR</b>	<b>PA</b>	<b>PT</b>
<b>O'qituvchi texnologiyadan foydalanishi an'anaviy amaliyotni</b>						
<b>almashtiradi</b>		<b>kengaytiradi</b>		<b>o'zgartiradi</b>		
<b>REPLACE</b>		<b>AMPLIFIES</b>		<b>TRANSFORMS</b>		
<b>R</b>		<b>A</b>		<b>T</b>		


**5-rasm. PIC-RAT yondashuvi**

Tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim texnologiyalari tahlil etildi hamda raqamli ta'lim platformasi orqali ta'limni tashkil etishning didaktik modeli ishlab chiqildi (6-rasm).

Shuningdek, raqamli ta'lim platformasidan foydalanib nazariy va amaliy darslarni tashkil etish uchun "brainsketching (miya eskizi)", "task-based (topshiriqqa asoslangan ta'lim)", "project-based (loyihaviy ta'lim)", "tengdoshlarni o'qitish", "collaborative (hamkorlikdagi ta'lim)", "gamification (o'yinli ta'lim)" texnologiyalari tanlab olindi hamda nazariy, amaliy va aralash darslarni olib borish metodikasi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning "**Raqamli ta'lim platformasi yordamida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish samaradorligi**" deb nomlangan to'rtinchi bobda tajriba-sinov ishlari natijalari qayd etilgan.

Umumta'lim muassasalarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda ta'lim samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari bazasi sifatida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri 46-, 10-, Mirishkor tumani 6-, Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani 16-, Qiziriq tumani 6-, Farg'ona viloyati Qo'qon shahri 1-, 2-, Samarqand shahri 10-, 45-, Toshkent shahri 48-, 64-, 241-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlandi. Tajriba-sinov ishlarida jami 1606 nafar, shundan 8-sinfdan 886 nafar, 11-sinfdan 720 nafar respondent-o'quvchilar ishtirok etdi.



**6-rasm. Raqamli ta'lim platformalari yordamida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning didaktik modeli**

Tajriba-sinov ishlari 2018-2022 yillar mobaynida uch bosqichda o'tkazildi.

**Birinchi – asoslovchi bosqich (2019–2020 o'quv yili).** Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy asoslari o'rganildi; tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi; tadqiqot ob'ekti va uning ko'rsatkichlari hamda unga mos mezonlar nazariy manbalardan tahlil qilinib o'rganildi. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratish zaruriyati ilmiy-nazariy jihatdan aniqlandi, ishchi farazlar shakllantirildi. Tadqiqot muammosining metodologik, ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy asoslari ilmiy adabiyotlar hamda dasturlash tillarini rivojlanish tendensiyalari, dasturlash tillarini o'qitishni tashkil etish usullari, vositalari, metodlari tahlil qilindi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani dasturlari tahlil qilindi va takomillashgan mazmuni ishlab chiqildi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitish samaradorligini oshiruvchi o'quv materiallari va amaliy mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha ko'rsatma hamda topshiriqlar, samaradorlikni belgilovchi test topshiriqlari ishlab chiqildi.

**Ikkinchi – amalga oshirish bosqichi (2020-2021 o'quv yili).** Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformasini yaratish reja-loyihasi va bosqichlari ishlab chiqildi. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformasini tarkibi va dasturiy ta'minoti yaratildi hamda o'quv materiallari joylashtirildi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitish uchun darslar mazmuni, shakl, vosita, metodlari ishlab chiqildi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitish metodikasi tizimlashtirildi va o'quv-uslubiy tavsiyalar, o'quv mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan metodik qo'llanma va raqamli resurslardan tarkib topgan ta'lim platformasi yaratilib, o'quv jarayoniga tatbiq etildi hamda sinab ko'rildi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitishda raqamli ta'lim platformasidan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. O'rganilayotgan muammoning dolzarbligi, ishlab chiqilgan tamoyillarning tatbiqini metodik asoslash bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.


**Uchinchi – aniqlashtiruvchi tajriba bosqichi (2021-2022 o'quv yili).** Raqamli ta'lim platformasi imkoniyati maxsus ekspertlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali baholandi. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o'qitish uchun ta'lim platformasi yordamida dars samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodikani sinovdan o'tkazish ishlari olib borildi. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani ta'lim platformasi asosida o'qitish bo'yicha natijalar umumlashtirildi, xulosalar amaliy jihatdan tekshirib ko'rildi hamda olingan natijalar matematik-statistik metodi yordamida tahlil qilindi.

Raqamli ta'lim platformasi yordamida tashkil etilgan “Informatika va axborot texnologiyalari” fani darslari bo'yicha o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarida qanday aks etganini aniqlash maqsadida o'quvchilar o'rtasida tajriba-sinov o'tkazildi.


Tajriba-sinovni o'tkazish jarayonida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan yaratilgan raqamli ta'lim platformasidan foydalanishda bir necha usullar qo'llanildi: o'quv jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish, yangi mavzularni mustaqil o'zlashtirish va mustaqil ijodiy izlanish bilimlarini mustahkamlash, o'z ustida ishlash.

Tajriba-sinov guruhlarida mashg‘ulotlar raqamli ta’lim platformasi yordamida, nazorat guruhlarida esa an’anaviy metodika bilan olib borildi. Tajriba va nazorat guruhida o‘tkazilgan natijalar 5 ballik reyting tizimida baholandi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining 8- va 11- sinflari bo‘yicha natijalari quyidagi diagrammada keltirilgan(7-8-rasm).



**7-rasm. Tajriba-sinov ishlarining 8-sinflari bo‘yicha natijalarining diagramma ko‘rinishi**



**8-rasm. Tajriba-sinov ishlarining 11-sinflari bo‘yicha natijalarining diagramma ko‘rinishi**

Matematik statistika formulalaridan foydalanish maqsadida tajriba guruhlaridagi o‘zlashtirish kattaliklarini  $x_i$ , mos o‘quvchilar sonini  $n_i$  va statistik ehtimollikni  $p_i = \frac{n_i}{N}$  bilan va huddi mana shunday kattaliklarni nazorat guruhlarini uchun esa mos holda  $y_i$ ,  $m_i$

va  $q_i = \frac{m_i}{M}$  bilan belgilandi. Shuningdek a'lo daraja 5 ball, yaxshi daraja 4 ball, qoniqarli daraja 3 ball va qoniqarsiz daraja 2 ball bilan belgilandi.

8 sinfdagi tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish 4,13, nazorat guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish 3,59 ga hamda 11-sinfdagi tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish 4,24, nazorat guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish 3,64 ga teng. "Informatika va axborot texnologiyalari" fani bo'yicha raqamli ta'lim platformasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar samaradorligi 8-va 11-sinflarda mos ravishda 1,15 barobar (15%) hamda 1,17 barobar (17%) ga yuqori ekanligi matematik-statistika metodlar orqali o'z tasdig'ini topdi.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, yaratilgan raqamli ta'lim platformasi yordamida o'quv jarayonini tashkil etish o'quvchilarning ijodiy qobiliyati va ijodiy fikrlashini o'stirdi, bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamladi, o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini oshirdi.

Mazkur natijalar raqamli ta'lim platformasi yordamida o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqot farazini to'liq tasdiqladi. Bunga tajriba-sinov ishlari natijalariga matematik-statistik qayta ishlash, reprezentativlikni ta'minlash, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanish qonuniga rioya qilish orqali erishildi.

## XULOSA

"Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim platformalarini yaratish va amaliyotga joriy etish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etishning hozirgi xolati va muammolari, muammolarni yechish yo'llari, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etish o'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash qobiliyati va kontseptual tushunishni rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni yaxshilash, turli tushunchalar bo'yicha axborot yaratish va muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish va o'z faoliyatini samarali yo'lga qoyish ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyasini amalga oshirishda raqamlashtirish strategiyasi, infratuzilma va raqamli kontent, raqamli ma'lumotlarni boshqarish, raqamli savodxonlik, o'quv dasturlari va standartlar, ta'lim strategiyalari va modeli, malaka oshirish treninglari, o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi va maktablarning ijtimoiy-iqtisodiy holati kabi omillarni hisobga olinishi maktablarning raqamli salohiyati va transformatsiyasini yaxshilashga imkon beradi.

3. Raqamli texnologiyalar, xususan, mobil texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, SMART texnologiyalar, buyumlar internet texnologiyalari, Veb 2.0 / Veb 3.0 texnologiyalari, ijtimoiy media texnologiyalar, multimedia texnologiyalari, o'yinli texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, ilovalar va dasturlar, ta'limni boshqaruv tizimlari, kontentni boshqaruv tizimlari, virtual borliq texnologiyalari, to'ldirilgan borliq texnologiyalari, blokcheyn texnologiyalari, BigData texnologiyalari, sun'iy intellekt, panoramik videolar, 3D bosib chiqarish, infografika, tezkor prototiplash kabi

texnologiyalarning imkoniyatlari, mazmuni-mohiyati va xususiyatlarini “Informatika va axborot texnologiyalari” fani mazmuniga singdirilishi raqamli savodxonlikka ega kadrlarni yetishtirishga xizmat qiladi.

4. Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim platformasini yaratishning pedagogik, psixologik, didaktik, dizayn, texnik va muallif huquqi kabi talablari hamda reja-loyihani ishlab chiqish, vaqtni tasdiqlash, dasturiy ta’minotni yaratish va sinovdan o’tkazish bosqichlari o’quvchilarni axborot tizimlari bilan ishlashdagi muammolarni hal qilish, o’ziga xos fikrlash usullarini qo’llash hamda mustaqil ta’lim olishga undaydi.

5. Raqamli ta’lim platformasini yaratishning maqsad, pedagogik dizayn, raqamli vositalar va qurilmalar, ta’lim mazmuni, topshiriqlar va baholash, o’qituvchilarni tayyorlash, doimiy takomillashtirish kabi tarkibiy qismlardan iborat pedagogik loyihasi ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish uchun raqamli vositalar va texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanadigan o’qitish va o’rganishga izchil va tizimli yondashuvni ta’minlaydi.

6. Raqamli ta’lim platformasini yaratish va amaliyotga joriy etishning tashkiliy, boshqaruv, texnologik, pedagogik, ahloqiy, dizayn, baholash va resurslarni qo’llab-quvvatlash kabi komponentalar hamda ASADDIE modeli asosida raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish, bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo’lgan milliy raqamli ta’lim platformasini yaratishga xizmat qiladi.

7. Umumiy o’rta ta’lim maktablari o’quvchilari “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini raqamli ta’lim platformasi orqali tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari o’rganish borasida o’tkazilgan izlanishlar shuni ko’rsatdiki, raqamli ta’lim platformasi orqali ta’limni tashkil etishda TPACK, SAMR, RAT, PICRAT texnologiyalarni qo’llanilishi ta’lim samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

8. Ta’lim oluvchi uchun qulay va do’stona milliy raqamli ta’lim platformasini yaratish, o’quv jarayonini soddalashtirish, ta’lim oluvchilar tomonidan o’quv kontentini yaxshi o’zlashtirilishi va oson eslab qolinishini ta’minlovchi fanga doir raqamli ta’limni taqdim etishning eng samarali usullarini topish orqali “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o’qitish samaradorligiga erishish mumkinligi aniqlandi.

9. Raqamli ta’lim platformasi orqali “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o’qitishning “brainsketching (miya eskizi)”, “task-based (topshiriqqa asoslangan ta’lim)”, “project-based (loyihaviy ta’lim)”, “tengdoshlarni o’qitish”, “collaborative (hamkorlikdagi ta’lim)”, “gamification (o’yinli ta’lim)” texnologiyalariga asoslangan o’qitish metodikasi ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi. Natijada o’quvchilarning o’rtacha o’zlashtirish kattaligi 15% va 17% ga oshdi.

10. Tadqiqot doirasida yaratilgan raqamli ta’lim platformasi umumiy o’rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o’qitish hamda alohida yordamga muhtoj o’quvchilarning masofaviy va mustaqil ta’lim olishi uchun qulay hamda samarali ekanligi empirik izlanishlar orqali o’z isbotini topdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiyasiga ta'sir etuvchi omillari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida raqamli transformatsiya sharoitida ta'limni tashkil etish strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

2. Umumta'lim maktablarida boshqa fanlarni o'qitishda ham tadqiqot doirasida yaratilgan raqamli ta'lim platformasi va uning mobil ilovasidan dars va darsdan tashqari o'quv faoliyatlarini tashkil etishda va barcha fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Yaratilgan raqamli ta'lim platformasini ta'lim muassasalari axborot ta'lim platformasi bilan integratsiyasini amalga oshirish hamda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va nazorat qilib borish jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

4. O'qituvchi va o'quvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish, ular o'rtasida raqamli ta'lim platformalari bilan ishlash uchun zarur bo'lgan raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borish maqsadga muvofiq.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ГОЛОВНОЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЦЕНТР ПРИ  
МИНИСТЕРСТВЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ**

**ФАЙЗИЕВА МАХБУБАХОН РАХИМЖОНОВНА**

**СОЗДАНИЕ И ВНЕДРЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПЛАТФОРМЫ В  
УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

**13.00.06 – Теория и методика электронного образования**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора педагогических наук (DSc)**

**Чирчик – 2023**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В.2023.2.DSc/Ped551.

Диссертация выполнена в Головном научно-методическом центре при Министерстве высшего образования, науки и инноваций.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (cspi.uz) и Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

**Научный консультант:**

**Аринов Мерсанд**  
доктор физико-математических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Джаббаров Насриддин Мирзоодилович**  
доктор физико-математических наук, профессор

**Ахмеджанов Дилмурод Гуломович**  
доктор технических наук, доцент

**Ибрайимов Аскар Есбосинович**  
доктор педагогических наук(DSc), доцент

**Ведущая организация:**

**Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 5 » X 2023 года в 14 00 часов на заседании разовый научный совет Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 при Чирчикском государственном педагогическом университете. (Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104). Тел.: (99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41; e-mail: cspi-kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического университета (рег. № 305). Адрес: 111720, Ташкентская область, город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104. Тел.: (99870) 712-27-55; факс: (99870) 712-45-41.

Автореферат диссертации разослан « 25 » 10 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № 126 « 23 » 10 2023 года).



**Ж.Э.Усаров**  
председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.п.н (DSc), профессор

**Д.М.Махмудова**  
заместитель секретаря Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.п.н (DSc), профессор

**А.Р.Кутлимурадов**  
заместитель председателя Научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
учёных степеней, к.ф.-м.н.

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире цифровые технологии и цифровые образовательные ресурсы используются для обеспечения качественного образования, улучшения преподавания и совершенствования методов оценки результатов обучения. Всемирный образовательный форум ЮНЕСКО 2023 г. признал необходимость использования возможностей цифрового образования для преодоления разрыва в образовании в контексте долгосрочной и постоянно развивающейся цифровой трансформации<sup>27</sup>, при этом особое внимание уделяется вопросам демократизации образования, стимулирования инноваций и подготовке кадров, обладающих навыками, которые необходимы в условиях конкурентного, быстро меняющегося мира с широким спектром профессиональных возможностей.

Исследования, осуществляемые в мире, платформы онлайн-обучения, которые обеспечивают возможности интерактивного обучения обоснованы разработкой систем обучения, которые предоставляют адаптивные курсы путем определения интеллекта человека. В частности, система цифровых ресурсов Espresso была разработана для школ Великобритании, а система Knewton была разработана в США на основе заданий, соответствующих знаниям учащегося. Подобные цифровые образовательные платформы играют важную роль в подготовке опытных и передовых кадров. Это, в свою очередь, обосновывает необходимость разработки методологии создания цифровой образовательной платформы и содержания образовательной платформы, реализующей дифференцированное обучение с учетом уровня знаний обучающегося.

В нашей стране, находящейся на пути к Третьему ренессансу, ведется широкомасштабная работа по реформированию системы непрерывного образования, внедрению цифровых технологий и повышению эффективности образования. В стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» определены задачи по созданию ИТ-инфраструктуры, цифровизации общеобразовательных школ, а также внедрению информационных систем и созданию цифровых образовательных платформ и внедрения их в учебно-воспитательный процесс. Это определяет анализ педагогических и психологических возможностей организации образования в условиях цифровой трансформации, выявление факторов, влияющих на интеграцию цифровых технологий в образование, создание цифровых образовательных платформ и разработку на их базе частнометодических основ обучения как актуальных задач сегодняшнего дня.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, предусмотренных Указами Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года №УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 5 октября 2020 года №УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации», от 28 января

---

<sup>27</sup><https://www.unesco.org/en/articles/education-world-forum-2023-unesco-mobilizes-ministers-greening-education-and-digital-transformation>

2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 апреля 2017 года №187 «Об утверждении государственных образовательных стандартов общего среднего и среднего специального образования», Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 6 октября 2020 года №ПП-4851 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с IT-индустрией», от 6 ноября 2020 года №ПП-4884 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания» и другими соответствующими нормативно-правовыми документами, касающимися данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан: I «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.** Научно-теоретические исследования, направленные на совершенствование организации образования в условиях цифровой трансформации, использование цифровых технологий для повышения эффективности образования, создание цифровых образовательных платформ и их внедрение в финансы, осуществляются в ведущих мировых научных центрах и высших образовательных учреждениях, в частности: Massachusetts Institute of Technology, Western Washington University, The Ohio State University, George Mason University, Florida A&M University (США); University of Cambridge, British Columbia Institute of Technology, University of Ottawa, Coventry University (Великобритания); University of Murcia, Polytechnic University of Catalonia (Испания); Swiss Federal Institute of Technology, George Mason University (Швейцария); Technische Universität München, Institute for Education, University of Oldenburg (Германия); Universiti Sains Malaysia (Малайзия); Kırıkkale University, Gazi University (Турция); Technion-Israel Institute of Technology (Израиль); Vienna University of Technology (Австрия); University of Padova (Италия); Wilfrid Laurier University, McGill University (Канада); Université de Lorraine, Health Education and Practices Laboratory (Франция); RMIT University, Bandoora, Curtin University Macquarie University, Monash University (Австралия); Ras Al Khaimah, King Abdulaziz University (Саудовская Аравия), University of Hong Kong (Китай), University of Tokyo (Япония), Korea Advanced Institute of Science and Technology (KAIST) (Южная Корея), GD Goenka University (Индия), Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова (Россия).

На основе проведенных в мире исследований по вопросам организации образования в условиях цифровой трансформации, использования цифровых технологий в образовании, создания образовательных платформ получены

следующие научно-практические результаты: исследователями изучены вопросы цифровой трансформации в образовании (EDUCAUSE is a higher education technology association, США)<sup>28</sup>, разработана и реализована стратегия организации образования в условиях цифровой трансформации (University of Mannheim, Германия)<sup>29</sup>, восстановлены роль и содержание предметов в цифровом образовании в школах и создан контент, соответствующий условиям цифрового образования, разработан национальный учебный план, представляющий содержание информатики и информационных технологий в высшем образовании (University of Cambridge, Великобритания)<sup>30</sup>, определены факторы образовательного неравенства в Европе (European Commission Joint Research Centre, Италия; Higher Institute of Education and Sciences and CEMAPRE, Португалия)<sup>31</sup>, изучены возможности использования цифровых технологий в общеобразовательных школах (Е European Commission - Joint Research Centre, Италия; European Commission - Joint Research Centre, Испания; Greek National Documentation Centre, Греция)<sup>32</sup>, осуществлена успешная интеграция цифровых технологий в учебную среду (RMIT University, Австралия)<sup>33</sup>, разработаны методы эффективного обучения учащихся с использованием цифровых технологий (University of British Columbia, Колумбия)<sup>34</sup> проведен мета-анализ влияния цифровых технологий на успеваемость учащихся (GD Goenka University, Индия)<sup>35</sup>, разработаны концепции, включающие в себя содержание цифрового обучения в системе школьного образования (Vienna University of Technology, Австрия)<sup>36</sup>, проведены исследования, связывающие цифровые технологии с творчеством детей младшего возраста (Curtin University, Австралия)<sup>37</sup>, разработаны планы использования информационных и

---

<sup>28</sup>D. Christopher Brooks and Mark McCormack. Driving Digital Transformation in Higher Education. ECAR research report. Louisville, CO: ECAR, June 2020.

<sup>29</sup>Ifenthaler, D., Hofhues, S., Egloffstein, M., & Helbig, C. (2021). Digital transformation of learning organizations (p. 252). Springer Nature.

<sup>30</sup> Brown N. C., Sentance S., Crick T., Humphreys S. Restart: The resurgence of computer science in UK schools //ACM Transactions on Computing Education (TOCE), 2014. Т. 14. №. 2. С. 1-22. National curriculum in England: Computing programmes of study. Department for Education, 2013. 201 с

<sup>31</sup>Blaskó, Z., Costa, P. da, & Schnepf, S. V. (2022). Learning losses and educational inequalities in Europe: Mapping the potential consequences of the COVID-19 crisis. *Journal of European Social Policy*, 32(4), 361–375.

